

Terms	Atamalar	Izoh
$m \times n$ ordered matrice	$m \times n$ tartibli matritsa	<p>F maydonning mn ta a_{ij} ($i=\overline{1,m}, j=\overline{1,n}$) elementlaridan</p> <p>tuzilgan ushbu $A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m1} & a_{m3} & \dots & a_{mn} \end{pmatrix}$</p> <p>ko'rinishdagi jadval F maydon ustidagi $m \times n$ tartibli matritsa deyiladi.</p>
Matrices with the same name	nomdosh matritsalar	A va B matritsalar berilgan bo'lib, ularning mos ravishda satrlari va ustunlari soni teng bo'lsa, u holda A va B matritsalarini nomdosh matritsalar deb yuritiladi.
Equal matrices	Teng matritsalar	A matritsaning har bir a_{ij} elementi B matritsaning unga mos b_{ij} elementiga teng bo'lsa, u holda A va B nomdosh matritsalar teng deyiladi.
Beginner element of matrice's line	Matritsa satrining boshlovchi elementi	Matritsa satrining boshlovchi elementi deb uning birinchi (chapdan o'ngga qaraganda) noldan farqli elementiga aytiladi.
Quadratic matrice	kvadrat matritsa	Matritsaning satr va ustunlari soni teng bo'lsa, bunday matritsaga kvadrat matritsa deyiladi.
Determinant of the quadratic	Kvadrat matritsaning determinanti	Kvadrat matritsaning har bir satr va har bir ustunidan bittadan elementlar olib tuzilgan ko'paytmalarning algebraik yig'indisiga

matrice		berilgan kvadrat matritsaning determinanti deyiladi.
Determinant of the n-ordered matrice	n -tartibli kvadrat matritsa ning determinanti	<p>n -tartibli kvadrat matritsa</p> $A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}$ <p>ning determinanti deb</p> $ A = \sum_{\tau \in S_n} \text{sgn}(\tau) a_{1\tau(1)} \cdot \dots \cdot a_{n\tau(n)} \quad (n!)$ <p>qo'shiluvchilardan iborat) yig'indiga aytiladi.</p>
Determinant of the multiplication of quadratic matrices	Kvadrat matritsalar ko'paytmasi ning determinanti	Kvadrat matritsalar ko'paytmasining determinanti berilgan matritsalar determinantlari ko'paytmasiga teng.